



**XORIJIY MAMLAKATLAR SANOATLASHUV TAJRIBASI: SINGAPUR
IQTISODIY MO'JIZASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10933445>

R.B.Saidov

Iqtisod fanlari nomzodi. Dotsent

Begjigitov Elmurod Erkinboy o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti

Budget hisobi va g'aznachilik fakulteti

BNG' 90- guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada Singapur iqtisodiy rivojlanishining bosqichlari keltirilgan, mamlakatning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari tahlil qilingan, Singapur "iqtisodiy mo'jizasi"ning asosiy omillari to'g'risida mulohazalar yuritilgan.

Tayanch so'zlar

sanoatlashuv, iqtisodiy tiklanish, liberallashuv, meritokratiya, ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstrukturlik faoliyatları.

**THE INDUSTRIAL EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES: THE
ECONOMIC MIRACLE OF SINGAPORE**

R.B.Saidov

Candidate of Economics. Docent

Begjigitov Elmurod Erkinboyning o'g'li

Tashkent State University of Economics

Faculty of budget accounting and treasury

BNG' 90th group student

ANNOTATION

The article presents the stages of Singapore's economic recovery, analyzes the country's economic growth indicators, and comments on the main factors of Singapore's economic miracle.

Keywords

industrialization, economic recovery, liberalization, meritocracy, scientific research and experimental design activities



ОПЫТ ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН: ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЧУДО СИНГАПУРА

Сайдов Р.Б.

Кандидат экономических наук. Доцент

Бегжигитов Элмурод Эркинбай огли

Ташкентский государственный экономический университет

Факультет бюджетного учета и казначейства

студент 90-й группы БНГ

АННОТАЦИЯ

В статье представлены этапы восстановления экономики Сингапура, проанализированы показатели экономического роста страны, а также даны комментарии об основных факторах экономического чуда Сингапура.

Ключевые слова

индустриализация, подъем экономики, либерализация, меритократия, научно-исследовательская и опытно-конструкторская деятельность.

Kirish

Canoat inqilobidan boshlab bugungi kunimizgacha sanoat sektori barqaror iqtisodiy rivojlanish va jamiyat farovonligini oshirishdagi o'z yetakchilik o'rnini davom ettirib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqilsa, barqaror iqtisodiy rivojlanishga, milliy raqobatbardosh sanoat sektorini yaratish orqali erishilganligini ko'rish mumkin. Ikkinci jahon urushidan keyin mustaqillikni qo'lga kiritgan, qator rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy tiklanish jarayonlarini sanoat sektoriga investitsiyalar kiritishdan boshladilar. Sharqiy Osiyoning yangi sanoatlashgan mamlakatlaridan biri bo'lgan, Singapur mamlakatining "iqtisodiy mo'jizasi" ga ham sanoat sektoriga kiritilgan investitsiyalar sabab bo'lganligini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda sanoatlashuv jarayonlarini jada llashtirish, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar kun tartibidagi eng dolzarb masala sifatidagi o'z o'rnini saqlab kelmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotlarda sanoatlashuvni jadallashtirish va iqtisodiy tiklanishga erishish to'g'risida turli xildagi yondashuvlarni uchratish mumkin. Shunga ko'ra, sanoatlashuv jarayonlarini jadallashtirish ushbu yo'nalishdagi xorijiy mamlakat tajribalari, ularning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish borasida ilmiy izlanishlar olib borishni talab qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy adabiyotlarda hamda o'zlarining ilmiy qarashlarida ko'plab iqtisodchi olimlar sanoatlashuv jarayonlari muammmolari, sanoat siyosati va



sanoatlashuv strategiyalari yuzasidan turli yo'nalishlarda o'z fiklarini bayon etganlar. Jumladan, Amerikalik iqtisodchi va davlat arbobi A.Hamilton va nemis olimi F.List ilmiy izlanishlarida milliy sanoatni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida davlatning rolini oshirish, milliy ishlab chiqarishni tashqi raqobatdan himoya qilish muammolarini tadqiq etgan [1].

Avstriyalik iqtisodchi P.N.Rosen teyn-Rodan esa o'zining "Sharqiy va Janubiy sharqiy Yevropaning sanoat lashuv muammolari" nomli maqolasida ikkinchi jaxon urushidan keyin Sharqiy Yevropa mamlakatlarining sanoatlashuv jarayonlari muammolari, maqbul sanoat siyosati ishlab chiqish xususiyatlari kabi masalalarni nazariy jihatdan o'rgangan [2]. Rosenteyn-Rodanning "Katta turtki" konsepsiysi kam rivojlangan mamlakatlarning sanoatlashuv siyosati yordamida iqtisodiy rivojlanishga erishish muammolariga bag'ishlanadi. Rosenteyn-Rodanga ko'ra kam rivojlangan mamlakatlarda resurslar yetishmovchiligi muammozi borligi sababli, bu mamlakatlar muvozanatli shaklda rivojlanishlari uchun o'z resurslarini tarmoqlar o'rtaida optimal tarzda taqsimlash kerak bo'ladi.

Vengriyalik iqtisodchi N.Kaldor sanoatlashuv jarayonlari, xususan esa ishlab chiqarish sanoatining "iqtisodiy o'sishning lokomotivi" ekanligiga doir empirik tadqiqotlar olib borgan va "Kaldor qonunlari" deb nomlangan gipotezalarda sanoatdagi mehnat unumdonligi ortishining boshqa sektorlarga nisbatan yuqori ekanligini aniqlagan, natijada sanoatdagi unumdonlik ortishi boshqa sektorlarda ham unumdonlik ortishiga olib keladi degan xulosaga kelgan [3].

Boshqa bir iqtisodchi olim D.Rodrik rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat siyosatlarini rejalashtirish va amaliyat ga joriy etishning xususiyatlari va mezonlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada xorijiy mamlakatlar sanoatlashuv tajribasi Singapur davlati misolida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o'rganish, statistik tahlil qilish, taqqoslama tahlil, guruhlash usullaridan samarali foydalanilgan.

Natija va muhokama

Cingapur Janubi-sharqiy Osiyoning eng rivojlangan shahar davlatidir. Yer maydoni 719,2 km² bo'lib, O'zbekiston yer maydonining olti yuzdan bir qismidan kamroq qismini tashkil etadi. Aholisi 5,3 mln, yalpi ichki mahsuloti 424,4 mlrd dollar, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 79,580 dollar (IMF 2022) [5]. Hozirgi kunda Singapur dunyoning eng yirik moliyaviy va biznes markazlaridan biriga aylandi. Singapur "iqtisodiy mo'jizasi"ning asoschisi, 1959-1990 yillarda Singapurda bosh vazir lavozimida ishlagan Li Kuan Yu hisoblanadi. Li Kuan Yu halol va idealist yo'lboshchi sifatida tanilgan. U o'zi bilan birga faoliyat olib borgan davlat xodimlarini halollikka, xalq muammolar bilan hamdard bo'lishga undagan, qo'l ostidagilarni qarorlar qabul qilishda va turmush tarzida shaxsiy namuna



ko'rsatishlariga katta e'tibor qaratgan [6]. Singapur iqtisodiyoti 1965 yilda Malayziyadan ajralib chiqib, mustaqillikka erishgandan so'ng juda tezlik bilan rivojlandi, jumladan, mustaqillikdan keyingi 25 yillik davr ichida real yalpi ichki mahsulot yillik o'rtacha 8,25 % va aholi jon boshiga daromad esa yillik 6,25 % ortib bordi. Ushbu davr oralig'ida Singapur aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ortishi jihatidan Janubiy Koreyani hisobga olmaganda boshqa barcha Osiyo mamlakatlaridan ilgarilab ketdi. 1960 yillardan boshlangan sanoatning jadal rivojlanishi va iqtisodiy tiklanishning eng asosiy omili qayta ishlash sanoati ning eksportga yo'naltirilishi bo'ldi. Singapur 1970 yillarga kelib juda qisqa muddatlarda to'la bandlikka erishadi va oradan o'n yil o'tib, Gonkong, Janubiy Koreya va Tayvan kabi Osiyoning yangi sanoatlashgan mamlakatlari orasidan joy oladi [7]. Singapurning 1960-1995 yillardagi iqtisodiy tiklanishi bir nechta bosqichlardan iborat : [8]

Dastlabki bosqich, 1959-1965 yillarni o'z ichiga olgan "import o'rnini bosish" strategiyasi qo'llangan davr bo'lib, sanoatlashuvni rag'batlantirishda muayyan muvafaqqiyatlarga erishilgan bo'lsada, 1960 yillar o'rtalariga kelib bu siyosat eksport hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va to'lov balansida muammolar keltirib chiqaradi.

Ikkinci bosqich, 1966-1973 yil larni o'z ichiga olgan "eksportga tayangan sanoatlashuv" davridir. Yangi strategiyadan maqsad eksportda erkin tashqi savdo tizimini joriy etish va milliy ishlab chiqaruvchilarning xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini eng arzon manbadan va import bojlarisiz qo'lga kiritilishini ta'minlashdan iborat edi. Bu davrda import uchun kvotalar bekor qilindi, boj ta'riflari pasaytirildi, natijada eksport ortdi, to'lov balansi yaxshilandi va mamlakat uchun 1960 yillarning eng muhim muammolaridan hisoblangan ishsizlik muammosining bosqichma-bosqich kamaytirilishiga erishildi [9].

Uchinchi bosqich, 1973-1984 yillarni o'z ichiga olgan "sanoatni qayta qurish" davri hisoblanadi. Singapur 1970 yillar boshlarida to'la bandlikka erishishi bilan sanoatlashuv strategiyasida yangi bosqichga o'tadi. Bu bosqichda texnologik rivojlanish ustuvor maqsad qilib belgilandi va mehnat talab sektorlar hisoblangan tekstil, tayyor kiyim kechak, elektron komponentlarni yig'ish va kema ta'mirlash kabi sektorlarni rivojlantirish o'rnini, ayni miqdordagi ishchi kuchidan yanada ko'proq qo'shimcha qiymatga ega bo'lish maqsadida, kompyuter, elektronika, mashinasozlik va farmatsevtika kabi malakali ishchi kuchi va texnologiya talab etuvchi sektorlarga qaratilgan investitsiyalarni rag'batlantirish egalladi.

To'rtinchi bosqich, 1985 yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi. 1985-1995 yillar oralig'ida olib borilgan iqtisodiy siyosat orqali sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishga, xususan, moliya va biznes xizmatlarini rag'batlantirishga e'tibor qaratildi. Singapur hukumati ishlab chiqarishda barqaror o'sishni saqlab qolish va ishlab



chiqarish sanoati samaradorligini oshirish maqsadida yangi sektorlarni topishga harakat qildi. Shu maqsadlarda biotexnologiya, kompyuter uskunalarini va aviatsiya sanoati yuqori o'sish potensialiga ega sektorlar sifatida tanlandi va bu sektorlar davlat tomonidan faol rag'batlantirildi.

Singapurda 1960–1992 yillarda qayta ishlash sanoati va moliyaviy xizmatlar sektori eng tez o'sishga erishgan sektorlar hisoblanadi. Aynan shu davrda ishlab chiqarish sanoatida real qo'shimcha qiymat 21 barobar, biznes va moliyaviy xizmatlar sektorida 23 barobar ortishiga erishildi. Bunday jadal o'sish natijasida biznes va moliyaviy xizmatlar sektorining real yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1960 yilda 14 % dan 1992 yilda 26 % ga, qayta ishlash sanoatining real yalpi ichki maxsulotdagi ulushi 12% dan 28 % ga ortishiga erishildi. Shu bilan birga, qayta ishlash sanoati tarkibida elektronika mahsulotlari ulushi 1970 yildagi 11 % dan 1992 yilda 40 % ga ortdi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar 20 yilga yaqin bir muddat ichida Singapur sanoati tarkibining qanchalik texnologiya talab sektorlarga yo'nalganligining eng yaqqol misolidir [10].

Quyidagi 1-jadvalda Singapurning 1960–1993 yillarda o'rtacha iqtisodiy o'sish darajalari ko'rsatilgan. Jadvalga ko'ra, har bir keyingi o'n yillikda iqtisodiy o'sishda pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa-da, Singapurning 1960–1993 yillardagi iqtisodiy o'sish darajasi o'rtacha 8% dan yuqorida bo'lganligini ko'rish mumkin.

Singapurda iqtisodiy o'sish eng yuqori bo'lgan oraliq 1965–1973 yillar dir. Bu davrda Singapur iqtisodiyoti o'rtacha yillik 12,7 % o'sishga teng bo'lib, misli ko'rilmagan natijalarga erishdi. Bu rivojlanish asosida esa eng avvalo Singapurning kuchli va zaif tomonlarini to'liq hisobga olgan holda mukammal rejalshtirilgan davlat siyosatlarining samarali shaklda ijro etilishi yotadi.

1-жадвал

Сингапурнинг йиллик ўртacha иқтисодий ўсиш кўрсаткичлари, % да (1960–1993 йиллар)

	1960– 1970	1970– 1980	1980– 1993
Ялни ички маҳ- сулот	8,8	8,3	6,9
Кишлоқ хўжалиги	5,0	1,4	-6,4
Саноат	12,5	8,6	6,2
Қайта ишлаш саноати	13,0	9,7	7,2
Хизматлар	7,7	8,3	7,4

Манба: Müller, 1997, 67 b.

2-жадвал

Сингапурда ЯИМning секторлар
бўйича тақсимоти, % (1960 – 1993)

	1960	1965	1970	1985	1993
Кишлоқ хўжалиги	4	3	2	1	0
Саноат	18	24	30	37	37
Ишлаб чиқа- риши саноати	12	15	20	24	28
Хизматлар	78	73	68	62	63

Манба: Müller, 1997, 70 b.

Singapurda YAIM ning sektorlar bo'yicha taqsimotini ko'rsatuvchi 2-jad val tahlilqilinganda, eng katta o'sish darajasi sanoat sektorida bo'lib, sanoat sektori ichida esa qayta ishlash sanoatining yuqori ulushni egallagan ligini ko'rish mumkin. Qishloq xo'jaligi va xizmat sektorining YAIM ichidagi ulushi kamayib



borish tendensiyasiga ega bo'lib, qayta ishlash sanoatining ulushi esa 12% dan deyarli 30 % gacha ko'tarilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Singapurdagi yuqori darajadagi iqtisodiy o'sishga erishishda eng katta hissa xususiy sektorda jamg'arilgan sarmoya hisobiga to'g'ri keladi. 1970 yillarning boshidan 1990 yillarning dastlabki davriga qadar asosiy kapital qo'yilmalarning YAIM ga nisbati o'rtacha 35 % dan yuqori bo'lgan. Bu nisbat Yaponiya va boshqa Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotlaridan ustun bo'lishi bilan birga, dunyodagi eng yuqori daraja sifatida ro'yxatga olingan.

Iqtisodiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Singapur iqtisodiy rivojlanishi sabablarini yagona omil bilan bog'lab bo'lmaydi, bunga bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy omillar sabab bo'lganligini ko'rish mumkin. Eng asosiy omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- kadrlar siyosatida meritokratiyani joriy etilishi bu omillarning eng asosiylaridan biridir. Davlat lavozimlariga kadrlar tanlashda, ularning shaxsiy sifatlarini odilona va obyektiv baholashga e'tibor qaratildi, eng munosib va qobiliyatli shaxslar qabul qilindi hamda ularning xizmat pog'onalarini bo'yicha ko'tarilishida ham xuddi shu mezonlarga qat'iy amal qilindi. 1990-2004 yillarda Singapur bosh vaziri lavozimida ishlagan Goh Chok Tong, 15 noyabr 1992 yilda so'zlagan nutqida Singapur erishgan muvaffaqiyatning zamirida meritokratiya yotganligini ta'kidlaydi: "Davlat maqomlarida, siyosatda, biznes olamida va ta'lim sohasida meritokratiyani joriy qilinishi Singapur xalqining mukammallikka erishishini va raqiblariga qarshi raqobatbardoshligini ta'minladi" [11]. Jahon banki, hukumatlar samaradorligini Hukumatlar Samaradorlik Indeksi (Government Effectiveness Index/GEI) orqali aniqlaydi. Singapur GEI indeksida doimiy ravishda oldingi o'rnlardan joy olib kelmoqda Iqtisodiy tiklanish kengashi (Economic Development Board/ EBD) va boshqa davlat tomonidan tashkil etilgan kengashlarning faoliyati hukumat siyosatlarini olib borishda va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda muhim rol o'ynadi. EBD Singapurdagi investitsiyalarni faol ravishda rag'batlantirish maqsadida Yevropa, AQSH va Yaponiyada ofislар ochdi. Turli targ'ibot va rag'batlantirish yo'llari orqali mamlakat eksport sanoatini rivojlantirish maqsadida mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalg qildi.

Singapur bosh vaziri Li Kuan Yu yo'lboshchiligidagi, xorijiy sanoatni mamlakatga olib kelishga katta e'tibor qaratildi. Buning uchun esa Li Singapur davlat maqomlari korrupsiyadan xalos bo'lishi kerakligini juda yaxshi tushundi. Xorijiy shirkatlar hukumatga ishonch hosil qilmasdan, millionlab dollarlarni investitsiya qilishdek tavakkalchilikni zimmalariga olishni xohlamas edilar [13]. Jahon banki tomonidan tayyorlangan Korrupsiya Nazorat Indeksi (Control of Corruption Index / CCI) Singapurning bu sohadagi muvaffaqiyatlarini yaqqol



ko'rsatadi. CCI barcha korrupsiya shakllarini, ya'ni davlatni manfaatdor guruhlar tomonidan qo'lga kiritilishidan tortib, davlat hokimiyatini shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanilganlik darajasigacha aniq ko'rsatib beruvchi indeks hisoblanadi.Ushbu indeksda Singapur 1996-2019 yillar oralig'ida 190 ta mamlakat orasida doimiy ravishda birinchi o'ntalikda bo'lgan. 2019 yilda esa Yangi Zelandiyadan keyin ikkinchi o'rinni egallab, o'z tarixining eng yaxshi ko'rsatkichiga ega bo'ldi [14]

Singapur boshqa rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan siyosiy va iqtisodiy muammolariga yechim topishda samarali foydalandi. Masalan, davlatning kadrlarni boshqarish siyosatida Yaponiya va Fransiya davlat xizmatlari va "Shell Company"ning faoliyatni baholash tizimi tanlab olindi. Mudofaa va boshqa shunga yaqin sohalarda davlat siyosatini olib borishda Isroil va Shveysariya kabi kichik mamlakatlar "model" sifatida qabul qilindi.

Ilmiy tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik faoliyatlariga katta e'tibor qaratildi. 1991-2020 yillar davomida 6 ta texnologiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan reja dasturlar uzluksiz ravishda amalga oshirildi va bu rejalgarda jami 60,5 milliardlik Singapur dollari miqdori da ilmiy tadqiqotlar va tajriba konstruktorlik faoliyatları resursi yo'naltirildi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, iqtiso diy rivojlanishining Singapur ajribasidan kelib chiqib, mamlaka timizdasanoatlashuv jarayonlarini takomillashtirishda quyidgi yo'nalishlarni taklif qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- kadrlar siyosatida meritokratiyani joriy etish. Meritokratiya davlat boshqaruvida samaradorlikni oshiradi. Davlat maqomlarida meritokratiyani joriy etilishi iqtisodiy siyosat olib borishda hukumatni malakali xodimlar bilan ta'minlaydi va faoliyatlar samaradorligini oshiradi;

- rivojlangan xorijiy mamlakat larda milliy eksport sanoatini rivojlantirish yo'nalishida mamlakatga xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha targ'ibot va rag'batlantirish faoliyatlarini olib boruvchi ofislardan tashkil etish;

- davlat budgetidan ta'lim va uning infrastrukturasini rivojlantirishga ajratiladigan mablag'lar ulushini keskin oshirish. Iqtisodiyotni sifatli kadrlar bilan ta'minlash maqsadida rivojlangan xorijiy mamlakatlarga ta'lim olish uchun yuborilayotgan talabalar miqdorini ko'paytirish hamda xorijda ta'lim olib qaytgan talabalar salohiyatidan samarali foydalanish amaliyotini takomillashtirish; - davlat tomonidan iqtisodiy siyosatni ishlab chiqilishida rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish. Ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik faoliyatlariga ajratilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish. Ushbu



yo'nalishdagi salohiyatni oshirishga qaratilgan reja dasturlar ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu masalalarni hal qilgan holda, sanoatlashuv jarayonlarini takomillashtirish orqali iqtisodiyotning boshqa sektorlarida ham iqtisodiy o'sishga erishish va aholi turmush farovonligini yanada oshirish mumkin bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saloxov S. THE ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN FINANCING "GREEN ECONOMY" PROJECTS //Models and methods in modern science. - 2024. - T. 3. - №. 2. - C. 5-9.
2. Khoshimov, J. (2023). Overseas experience in the development of the life insurance industry. Молодые ученые, 1(20), 65-69.
3. Qizi, Aminova Nilufar Umarboy. "ISSUES OF FINANCING OF INVESTMENT PROJECTS ON THE BASIS OF SYNDICATE LOANING." Open Access Repository 10.12 (2023): 8-14.
4. Сулейманов И., Рахимов Д. НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА В ФИНАНСОВО-ПРОМЫШЛЕННЫХ ГРУППАХ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. - 2024. - T. 3. - №. 4. - C. 33-38.
5. Холматов Ф. К. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ЛИКВИДИЛИК РИСКНИ БОШҚАРИШ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. - 2024. - T. 5. - №. 1. - C. 375-382.
6. Suleymanov I. FEATURES OF FINANCIAL SUPPORT FOR THE REAL SECTOR OF UZBEKISTAN'S ECONOMY IN THE CONTEXT OF GEO-FINANCIAL POLICY INSTABILITY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. - 2024. - T. 23. - C. 33-43.
7. Xolmatov F. Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1 (9). - 2023.
8. Murtazaevich K. S. FOREIGN EXPERIENCE IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS INTO THE NATIONAL ECONOMY //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. - 2023. - T. 22. - C. 101-107.
9. Kiyosov S. U. et al. WAYS TO ENSURE THE STABILITY OF STATE FINANCES BY INCREASING LOCAL BUDGET REVENUES //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. - 2023. - T. 2. - №. 9. - C. 21-26.



10. Murtazaevich K. S., Vohidovich G. S. The Role Of Foreign Direct Investment In The Organization And Development Of An Innovation Cluster //Global Scientific Review. - 2023. - T. 22. - C. 244-249.
11. Джамбакиева Г. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИИ //IMRAS. - 2024. - T. 7. - №. 3. - C. 20-35.
12. Hoshimov J. XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHGA YARATILGAN MUHIT VA UNING JOZIBADORLIK DARAJASI //Iqtisodiyot va ta'lim. - 2023. - T. 24. - №. 4. - C. 42-46.
13. Xayrulla o'g'li, I. T. (2023). PARTISIPATOR BYUDJETLASHTIRISH FUQAROLARNING BYUDJET JARAYONIDAGI ISHTIROKINING SAMARALI MEXANIZMI SIFATIDA. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(15), 228-229.
14. Fatixovna G. A., Sayfutdinovna D. G. DETERMINATION OF PROFITABILITY OF AN ECONOMIC SUBJECT WITH THE HELP OF OPTIMIZATION OF FINANCIAL STATEMENTS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS //JOURNAL OF CHEMISTRY. - 2023. - T. 6. - №. 5. - C. 8-14.
15. Saloxov, Sirojiddin. "“Yashil iqtisodiyot” ni joriy etish istiqbollari." (2023).
16. Khairullaevich, I. T. (2023). PROBLEMS AND TASKS OF EDUCATION IN THE ECONOMIC SPHERE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 409-412.
17. Saloxov S. PROSPECTS OF IMPLEMENTATION OF “GREEN ECONOMY” //Инновационные исследования в науке. - 2024. - T. 3. - №. 2. - C. 5-8.
18. Tolaganova R., Ochilov B. DIRECTIONS FOR IMPROVING INVESTMENT ATTRACTION MECHANISMS //Евразийский журнал академических исследований. - 2024. - T. 4. - №. 1 Part 2. - C. 144-151.
19. Bakhtiyor o'g'li, Ochilov Bobur. "THE IMPORTANCE AND NECESSITY OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN ATTRACTING CAPITAL TO THE COUNTRY'S ECONOMY." Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 21 (2023): 60-67.
20. Navruzov I. A. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE REGIONAL INVESTMENT ENVIRONMENT IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS TO THE ECONOMY //INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI. - 2023. - T. 1. - №. 1.
21. Murtazaevich K. S. THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGIONS //World Economics and Finance Bulletin. - 2023. - T. 22. - C. 7-10.